



O'ZBEK TILIDA PRAGMA-FRAZALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Ernazarova Dilfuza Odilovna

FDTU 2-son akademik litsey

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada iboralarning pragmatik xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan. O'zbek tilida iboralarning xalq turmush tarzi asosida paydo bo'lish jarayonlari yoritilgan. Pragma-frazalarning lingvokulturologik tadqiqi to'g'risida fikr va mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация. В данной статье представлена информация о прагматических особенностях выражений. Освещены процессы возникновения выражений в узбекском языке на основе образа жизни народа. Представлены мнения и комментарии по поводу лингвокультурологического исследования прагма-фраз.

Annotation. This article provides information about the pragmatic features of expressions. The processes of emergence of expressions in the Uzbek language on the basis of the people's lifestyle are highlighted. Opinions and comments on the linguistic and cultural research of pragma-phrases are presented.

Kalit so'zlar: pragmatika, ibora, turg'un birikma, pragma-fraza, madaniyat, milliy xarakter, lingvokulturologiya.

Ключевые слова: прагматика, словосочетание, устойчивое сочетание, прагма-фраза, культура, национальный характер, лингвокультурология.

Keywords: pragmatics, phrase, stable combination, pragma-phrase, culture, national character, linguo-culturology.

Fraza (ibora) – so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, ma'nosi, odatda, bir so'zga, ba'zan so'z birikmasi, gapga teng keladigan, nutqqa



tayyor holda olib kiriluvchi, ko'chma ma'noli barqaror (turg'un) birikma. Iboralar adabiy tilning badiiy va so'zlashuv uslubida keng va ko'proq qo'llanadi, nutqni ta'sirchan, obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Iboralar tilshunoslikda frazema, frazeologizm, frazeologik birikma deb ham yuritiladi. Iboralarni o'rganuvchi bo'lim esa frazeologiya deb ataladi.

Frazeologiya tilning mustaqil birligi sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab maxsus o'rganilib kelinmoqda. Frazelogiya bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining takomiliga o'zbek frazeologlaridan Sh. Rahmatullayev, M. Umarxo'jayev, M. Sodiqova, L. Royzenzon, Y. Avaliani, E. Begmatov, A. Mamatov va B. Yo'ldoshevlar o'z hissalarini qo'shgan [3:3].

Pragma-fraza – bu pragma-semantik yo'nalish doirasida qo'llaniladigan atama bo'lib, muayyan iboraning funktsional ma'nosini ifodalaydi. Pragmatik nuqtayi nazardan, bu iboralar muloqotda aniq maqsad va vazifani bajarish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Inson o'z ongli hayoti ibtidosidan boshlab mehnat bilan shug'ullanib kelmoqda. Mehnat jarayonida esa ular xilma-xil ishlarni bajarib kelgan. Uning mehnat faoliyatida bajarilgan u yoki bu xatti-harakatlar lisoniy assotsiatsiyalarni paydo qiladi. Shu tufayli biror fikrni obrazli ifodalashga ehtiyoj seziladi. Ayni shu holat kishilarning milliy xarakter va turmush tarziga aloqador bo'lgan iboralarning shakllanishiga sababchi bo'lgan. Hamma xalqlarda ham vatan tuyg'usi, uni sevish, ardoqlash his-tuyg'usi bor. Bu kabi fiziologik holatlar emotsional munosabatlarni ijobiy yoki salbiy ma'noda tilda namoyish etish ixcham va chuqur ma'noli iboralar orqali ifodalanadi va ular ana shunday ehtiyojlar asosida shakllanadi. Olimlarning fikricha, har bir inson hayoti davomida o'z tilidagi 700dan ortiq maqol, matal, hikmatli so'z yoki iboralar haqida tushunchaga ega bo'lar ekan [3:3]. O'zbek xalqi purma'no so'zga, o'git-u naqlarga boy xalq sanaladi. Ajdodlarimizning azaldan o'z hayotiy muammolarini-mehnat mashaqqati, g'am-anduhi, rohat-farog'ati, muvaffaqiyat va mag'lubiyati, rasm-rusumlari – hamma-hammasini maqol va



matallarda, naql va barqaror iboralarda ko'zgudagidek aks ettirib keladi. Xalqning til boyligi – uning bo'yoqdor, serjilo leksikasining, frazeologiya qatlamining boyligi bilan ham o'lchanadi. O'zbek tili – ona tilimizning juda boy, ma'nodor, jozibali, va rang-barangligi Alisher Navoiy zamonidayoq isbotlangan [1:29]. Iboralar tilni, uning mazmunini yanada boyituvchi ma'naviy xazinadir. Ular lingvokulturologiyaning asosiy obyektlaridan biri sanalgan barqaror birikma bo'lib, lingvokulturologik obyekt sifatida millatning madaniyatini o'zida jamlovchi til birligi sanaladi. Iboralarni lingvokulturologik nuqtayi nazardan keng tahlil qilish tilshunoslikda o'z yechimini kutayotgan masala sifatida belgilanadi. Ularni o'rganish turli yangi xulosalarni olish imkoniyatini yaratadi.

Quyida o'zbek xalqining milliy xarakteriga xos ayrim pragma-frazalarning lingvokulturologik tadqiqini ko'rib o'tamiz:

❖ **Ota makon.** Xalqimiz uchun yaratgan ato etgan eng aziz ne'matlardan biri o'zi tug'ilib o'sgan, ota makoni, yurti – Vatani. Bu iboraning tag zamirini olib qarasak, har bir insonning o'z qadrdon joyi, suyangan yagona insoni-otasiga ishora bo'lyapti. Ota uyda erkinlik va xotirjamlik bilan birga baxtni his qilish mumkinligini tushinish mumkin. [2:28].

❖ **Bir mayizni qirqqa bo'lib yemoq.** Bu ibora ham o'zbek xalqining ezgu fazilatlaridan bo'lmish hamjihat bo'lish va yakdil bo'lishlikka chorlaydi. Bu yerda ham ko'chma ma'noda qo'llangan, o'z manosini oladigan bo'lsak, bir kichik mayizni qirq bo'lakka bo'lish qiyin, lekin xalqimizning ahilligi, hamjihatligi sababli buning iloji bor [2:28].

❖ **Bel olishdi.** O'zbek xalqining qadimiy sport turlaridan biri-kurash butun dunyoga mashhur bo'lib bo'ldi. Bayramlar ,to'ylarda kata-katta kurash musobaqalari tashkil etilib kelishi, xalqimizni birlashtiradi va milliy urf-odatlarimizni saqlab qoladi. [1:29].



❖ **Yelkasidan olmoq.** Bu ibora juda ko‘p ma’nolarda qo‘llanilib, o‘zbek xalqining milliyligiga xos bo‘lgan bu ibora salomlashish, ko‘rishish ma’nosini ham tashiydi. Bunda ko‘rishmoqchi bo‘lgan katta yoshli ayollarga (masalan, qaynonaga) engashib yelka tutiladi va yoshi katta onaxonlar yelkasidan olib duo qiladilar.. Bu milliy xarakteri bilan xalqimiz o‘zining kattaga hurmat, kamtarinlik, odob kabi ijobiy xislatlarini namoyon etadi. [2:28].

Xulosa qilib shuni aytish joizki, xalqimizda odob – axloqqa, yaxshilikka undovchi iboralar ko‘plab uchraydi. Bunday iboralardan hayotda foydalanish kishilarning milliy xarakterini ochib beradi. Xalqimiz bu kabi til birliklarida ham farzandlarni tarbiyaga va kamolotga undaydi. O‘zbek millatining madaniyatini tilda namoyon bo‘lishi hamda ifodalanishi tilimizda yanada so‘z boyligining oshishiga va rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. M. Sherbo‘tayeva, O‘zbek tilida “Lingvokulturemalar” va ularning lingvokulturologik tadqiqi. – A.: Andijon, 2014. – B. 29.
2. Sh. Rahmatullayev, O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1978. – B. 28.
3. X. Berdiyev, R. Rasulov, O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1984. – B. 3.
4. E. Xujaniyazov, N. Sultanova, O‘zbek xalqi turmush tarzi asosida shakllangan frazeologizmlar. – T.: Fan va jamiyat, 2017. – B. 17.
5. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev, Hozirgi o‘zbek adabiy tili – T.: Fan 1992. – B. 57